

Kuzgi o'rmon



Plastilin loy, yogʻ, mum va boʻyoqlardan tayyorlanadi. Dastlab plastilin tozalash vositasi sifatida qoʻllanilgan va faqat kulrang tusda ishlab chiqarilgan. Tasodifan bolalar qoʻliga tushib qolgach, u ularga juda manzur boʻlgan. Loydan farqli oʻlaroq, plastilin qoʻlga yopishmaydi va undan shakl yasash juda oson. Plastilindan nafaqat bolalar ijodida, balki kattalar tomonidan hajmli suratlar va multfilmlar yaratishda ham foydalaniladi. Plastilinning bir necha turi mavjud. Bugun biz ulardan biri – gʻovaksimon yengil plastilin bilan ishlaymiz va **Kuzgi o'rmon** manzarasini yaratamiz.



Plastilindan **hajmli kompozitsiya** yasang.

Sizga kerak bo'ladi:



- gʻovaksimon plastilin;
- plastilin bilan ishlash uchun taxtacha;
- shoxchalar;
- karton.

Ish rejasi:

1. Ishni bajarish bosqichlarida koʻrsatilganidek, plastilindan bir nechta **kuzgi daraxtlar** yasang. Ularni shoxchalarga birlashtir.
2. Qattiq kartondan yasalgan asosga **plastilin** surting.
3. **Daraxtlarni** joylashtiring va bezak uchun detallar qoʻshing.

